OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ B. Axmedov
"___" _____ 2025-yil

"IJTIMOIY FANLAR" KAFEDRASI

"IJTIMOIY ANTROPOLOGIYA" FANI BO'YICHA SILLABUS
(2-kurs)

Bilim sohasi:	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60920100 – Ijtimoiy ish
Semestr:	4
Kreditlar soni:	4

ANDIJON – 2025

© Ushbu hujjat[1] Andijon davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

Kun	
Avgust 2025	Ushbu sillabus Andijon davlat universiteti kengashining 2025-yil “___”-_____ dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Tuzuvchi: Xoshimjonov Sharofiddin Kozimjon o‘g‘li “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
	Taqrizchilar: 1. Badalov A.A. – Andijon davlat universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori. 2. N.A.Xushvaqova – Andijon viloyati hokimligi huzuridagi fuqarolarni o’zini o’zi boshqarish organlari hodimlarini malakasini oshirish markazi direktori s.f.f.d.,(PhD).

[1] Dunyodagi eng yaxshi 300 ta universitetning xalqaro reytingidagi Columbia University (https://bulletin.columbia.edu/general-studies/majors-concentrations/sociology/sociology.pdf) Barnard College (https://catalog.barnard.edu/barnard-college/courses-instruction/sociology) QS va THE reytinglarida doimiy ravishda Top-20 likda) sillabusidan foydalanildi

MUNDARIJA

ITAP2404: “IJTIMOIY ANTROPOLOGIYA”

1. Fan tavsifi 4
2. Fanning dastlabki rekvizitlari 4
3. Fanning maqsadi 4
4. Ta’lim berish natijalari 4
5. Ta’lim berish usullari 5
6. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar 5
7. Adabiyotlar 6
8. Soatlar/Kreditlar 8
9. Fanning tarkibiy tuzilishi 8
10. Talabalar bilimini baholash 10
11. Akademik talablar 11

“IJTIMOIY ANTROPOLOGIYA” (STA1110)

1. Fan tavsifi

“Ijtimoiy antropologiya” fanida inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-madaniy jihatlari, turli xalqlar va guruhlarning hayot tarzi, qadriyatlari, urf-odatlari, diniy qarashlari hamda ijtimoiy institutlar faoliyati o‘rganiladi. Ayniqsa, turli davrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayoti, o‘zbek xalqining an’analari va antropologik xususiyatlari alohida tahlil qilinadi. Ushbu fan bakalavriat bosqichining ikkinchi kursida, bir semestr davomida o‘qitilishi rejalashtirilgan.

Ushbu fanning maqsadi – “Sotsiologiya” ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarning ijtimoiy antropologik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotini madaniy xilma-xillik nuqtai nazaridan o‘rganishga tayyorlash, jamiyatdagi madaniy jarayonlarni ilmiy tahlil qilish salohiyatini rivojlantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarni ijtimoiy antropologiyaning nazariy asoslari bilan tanishtirish, antropologik tadqiqotlarning klassik va zamonaviy yo‘nalishlari haqida bilim berish; turli xalqlar ijtimoiy tuzilishi, madaniy tizimlari va qadriyatlarini qiyosiy o‘rganish; O‘zbekiston xalqlari va dunyo xalqlarining madaniy-ma’naviy merosidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish; talabalarni ilmiy tadqiqot metodlari, etnografik kuzatuv va dala tadqiqotlari bilan tanishtirish.

Fanning asosiy jihati — talabalarda turli jamiyat va madaniyatlarning o‘ziga xosliklarini tushunish, antropologik nazariyalarni real hayotiy misollar asosida qo‘llay olish, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy muammolarni ilmiy tahlil qilish hamda amaliy faoliyatda antropologik yondashuvlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

2. Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fan uchun Ijtimoiy ish tarixi va xorijiy tajriba (IIT1106), Inson xulq atvori va ijtimoiy muhit (IXI1206), Ijtimoiy ish nazariyasi (IJN1310), Sotsiologiya (SOT1310) kabi fanlarga oid bilimlarni egallashi lozim bo‘ladi.

3. Fanning maqsadi

Ijtimoiy antropologiya fanining maqsadi insoniyatning tarixiy evolyutsiyasi jarayonida sotsial qonuniyatlarning qaror topishi jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish, insoniyatning rivojlanishiga tabiiy va sotsial omillarning ta’siri darajasini o‘rganish, shuningdek, ularning o‘zaro aloqadorligi va munosabatlarini baholash, insoniyat taraqqiyotining asosiy muammolari, ijtimoiy tizimlar evolyutsiyasi va faoliyati va barcha turdagi amaliy muammolarga yechim izlashdir.

4. Ta’lim natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

- ijtimoiy antropologiyaning kategorial apparatini tashkil etuvchi asosiy tushuncha va atamalarni bilish;
- ijtimoiy-antropologik tadqiqot ob’ektining tabiati va rivojlanish yo'nalishlarini bilish;

- turli maktablar va sohalarda yuzaga kelgan ijtimoiy-antropologik tadqiqot usullari va texnikalari haqida bilimga ega bo‘lish;
- Jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqlikda ekanligini yaxlit idrok etishi hamda jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olishni bilish;
- Ijtimoiy antropologiyaning nazariy asoslari, sotsiomadaniy qonuniyatlar va sotsial jarayonlarning xususiyatlarini bilish;

5. Ta’lim berish usullari

– real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
– esse, tezis va maqolalar yozish;
– vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
– jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;
– muhokamalarda ishtirok etish;
– kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish;
– loyiha ishini bajarish;
– mustaqil ishlarni bajarish;
– taqdimot tayyorlash;
– turli darajadagi testlarni yechish;
– so‘rov o‘tkazish;

6. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

1. Ijtimoiy antropologiyaning predmeti va tadqiqot obyekti.
2. Antropologik tadqiqot metodlari: kuzatish, intervyu, etnografik tahlil.
3. Antropologiyada strukturaviy-funksionalizm nazariyasi.
4. Simvolik va interpretativ antropologiya yondashuvlari.
5. Postkolonial antropologiya va zamonaviy ilmiy paradigmalar.
6. Britaniya ijtimoiy antropologiya maktabi: asoschilari va merosi.
7. Fransuz antropologik maktabi va uning ilmiy merosi.
8. Amerika madaniy antropologiyasi: F. Boas va uning izdoshlari.
9. Rossiya va Markaziy Osiyodagi antropologik tadqiqotlar tarixi.
10. Zamonaviy antropologiyada transmilliy maktablarning rivojlanishi.
11. “Madaniyat” tushunchasining antropologik ta’rifi.
12. “Jamiyat” va “ijtimoiy tuzilma” tushunchalarining antropologik talqini.
13. Identiklik va o‘zlikni anglash masalasi.
14. Qarindoshlik tizimlari va ularning tiplari.
15. Etnos tushunchasi va etnik madaniyatning o‘ziga xosligi.
16. Antropogenez va odam evolyutsiyasi bosqichlari.
17. Paleolit, mezolit va neolit davrlari madaniyatining antropologik tahlili.
18. Qadimgi Sharq jamiyatlari antropologiyasi.
19. O‘rta asrlarda inson va madaniyat talqini.
20. Modernizatsiya davrida ijtimoiy-madaniy antropologik o‘zgarishlar.
21. Inson genetik xilma-xilligi va madaniy tafovutlar.
22. Ijtimoiy tabaqalanishning antropologik ko‘rinishlari.

23. Jins va gender rollarining antropologik talqini.
24. Irqiy stereotiplar va ksenofobiya muammosi.
25. Global dunyoda milliy identiklikning o‘zgarishi.
26. Madaniyat turlari: an’anaviy va zamonaviy jamiyat.
27. Turmush tarzi va moddiy madaniyat tahlili.
28. Madaniyat shakllanishining zamonaviy konsepsiyalari.
29. Diniy qadriyatlarning madaniy hayotdagi o‘rni.
30. Milliy diasporalar va transmilliy madaniyat.
31. Ekologik antropologiya: inson va tabiat o‘zaro ta’siri.
32. Siyosiy antropologiya: hokimiyat va ijtimoiy munosabatlar.
33. Din antropologiyasi: marosimlar, ramzlar va e’tiqodlar.
34. Iqtisodiy antropologiya: ishlab chiqarish va iste’mol madaniyati.
35. Tibbiyot antropologiyasi: sog‘liq va kasallikning madaniy talqini.
36. Ta’lim antropologiyasi: bilim va qadriyatlarning uzatish jarayoni.
37. Migratsiya jarayonlari va transmilliy identiklik.
38. Urbanizatsiya jarayonlari antropologik tahlilda.
39. Globalizatsiya va madaniy gomogenlashuv muammosi.
40. Zamonaviy O‘zbekistonda ijtimoiy antropologiya tadqiqotlari istiqbollari.
41. Irqlar, irqchilik va ksenofobiya
42. Tafakkur tarsi va kundalik hayot
43. Kurashlar dunyosi – HOMO AGRESSIUS
44. O‘yinlar dunyosi – HOMO LUDENS
45. Turli madaniyatlarda o‘lim muammosi
46. Sevgi muhabbat dunyosi – HOMO AMORIS
47. Antropologiyada dala taqqiqotlari
48. Til va madaniyat
49. Ovqatlanish antropologiyasi
50. Vizual antropologiya
51. Media antropologiyasi

7. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Shadmanova S.B. Ijtimoiy antropologiya asoslari. Darslik. – Toshkent: TDSHU nashriyoti, 2021. – 315 bet.
2. Kalonov K., Sobirova U. Ijtimoiy antropologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Go To Print”, 2020. – 176 bet.
3. Минюшев Ф.И. Социальная антропология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений (Курс лекций). ISBN: 5-8291-0465-2, 5-902357-13-6

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Narziyev N. Tarixiy antropologiya. (O‘quv qo‘llanma). – T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. – 180 bet
2. Mahmudova G. Madaniy antropologiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: – Ma’rifat, 2023. – 204 bet

3. Эриксен Т.Х. Что такое антропология? Учебное пособие / Пер. с анг. А.И. Карасевой. – М.:Изд. дом. Высшей школы экономики, 2014. – 238 с.
4. Алан Барнард. Социальная антропология: исследуя социальную жизнь людей / Пер. с анг. Ю.А.Артемовой, М.В. Тендряковой. – М.: ИРА РАНб 2009. – 244 с.
5. Панкратова Л.Э. Социальная антропология [Электронный ресурс]: монография / Л.Э.Панкратова. – Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2016. – 128 с
6. Отюцкий Г. П. Социальная антропология : учебник и практикум для академического бакалавриата. – М. : Изд-во Юрайт, 2015. – 423 с
7. Nigel Rapport, Joanna Overing. Social and cultural antropology: The Key concepts. London and New York. – Taylor & Francis e-Library, 2003

Axborot manbalari

1. Social Anthropology / Anthropologie Sociale — ijtimoiy antropologiya bo‘yicha xalqaro ilmiy jurnal. https://www.cambridge.org/core/journals/social-anthropology
2. Cultural Anthropology — Madaniyat antropologiyasi bo‘yicha maqolalar chop etiladi. journal.culanth.org https://journal.culanth.org
3. Journal of the Anthropological Society of Oxford (JASO) — ochiq kirishli antropologiya jurnali. https://www.anthro.ox.ac.uk/jaso
4. Sociologus — ijtimoiy antropologiya va madaniy tadqiqotlar bo‘yicha nemis-tilidagi va ingliz tilidagi maqolalar. https://www.jstor.org/journal/sociologus
5. Swiss Journal of Sociocultural Anthropology — ochiq kirishli jurnal bo‘lib, turli tillarda maqolalar chop etadi. journal-sa.ch https://journal-sa.ch
6. The Cambridge Journal of Anthropology — antropologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar portali. berghahnjournals.com https://www.berghahnjournals.com/view/journals/cja/cja-overview.xml
7. Social Evolution & History — antropologiya, sotsiologiya, tarix integrasiyasi bo‘yicha maqolalarga joy beradi. https://en.wikipedia.org/wiki/Social_Evolution_%26_History

8. Soatlar/Kreditlar

Ta’lim turi	Ma’ruza	Seminar mashg‘ulot	Laboratoriya	Mustaqil ta’lim	Jami
Birinchi semestr kredit modul miqdori – 6 ECTS					
Kunduzgi	24	24	0	72	120
Yillik, jami	**24**	**24**	**0**	**72**	**120**

9. Fanning tarkibiy tuzilishi

Kunduzgi:

T/r	Mavzular	Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlar rejasi	Soatlar		
			Ma’ruza mashg‘ulotlari	Seminar mashg‘ulotlari	Mustaqil ta’lim
1	**Ijtimoiy antropologiya fanining nazariy metodologik asoslari**	*Ijtimoiy antropologiyaning fan sifatida shakllanishi va predmeti* *Nazariy asoslar: klassik va zamonaviy yondashuvlar* *Metodologik yondashuvlar: kuzatuv, etnografiya, qiyosiy tahlil* *Antropologik tadqiqotlarning ilmiy amaliy ahamiyati*	**2**	**2**	**6**
2	**Ijtimoiy antropologiyaning asosiy maktablari va asosiy tushunchalari**	*Evolyutsionizm, funksionalizm va strukturalizm maktablari* *Neoevolyutsionizm va madaniy ekologiya yo‘nalishlari* *Postmodernizm va interpretativ antropologiya* *Antropologiyaning asosiy tushunchalari: madaniyat, etnos, identitet, ijtimoiy tizim*	**2**	**2**	**6**
3	**Antropogonez. Odam evolyutsiyasining tarixiy va madaniy bosqichlari**	*Antropogonez tushunchasi va ilmiy nazariyalar* *Insonning biologik evolyutsiyasi (hominidlar, Homo sapiens)* *Tarixiy-madaniy bosqichlar: ibtidoiy jamoa, qabilaviy tizim, dastlabki davlatlar* *Inson evolyutsiyasi va madaniy taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik*	**2**	**2**	**6**
4	**Insoniyatning xilma-xilligi va jamiyatning tabaqalanishi**	*Biologik va madaniy xilma-xillik tushunchasi* *Ijtimoiy tabaqalanishning tarixiy shakllari (qabila, kasta, tabaqa)* *Millat, irq va etnik guruhlar masalasi* *Xilma-xillik va ijtimoiy tengsizlik muammolari*	**2**	**2**	**6**

5	**Inson va madaniyat. Madaniy taraqqiyot va turmush tarzi. Zamonaviy antropologiyada madaniyatning shakllanish konsepsiyalari**	*Inson va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik* *Madaniyat taraqqiyotining bosqichlari va turmush tarzi xususiyatlari* *Zamonaviy antropologiyada madaniyat konsepsiyalari: struktural, funksional va interpretativ yondashuvlar* *Globallashuv davrida madaniyatning transformatsiyasi*	**2**	**2**	**6**
6	**Etnos va etnomadaniyat**	*Etnos tushunchasi va uning shakllanish nazariyalari* *Etnik identitet va o‘ziga xoslik muammosi* *Etnomadaniyatning asosiy unsurlari (til, din, urf-odatlar)* *Millatlararo aloqalar va etnomadaniy integratsiya*	**2**	**2**	**6**
7	**Antropologiyada qarindoshlik masalasi. Oila va gender antropologiyasi**	*Qarindoshlik tizimlari va ularning turlari* *Oila ijtimoiy institut sifatida: an’anaviy va zamonaviy shakllar* *Gender munosabatlari va madaniy kontekst* *Zamonaviy jamiyatda oila va gender transformatsiyasi*	**2**	**2**	**6**
8	**Migratsiya jarayonlari va antropologiya. Antropologiyada milliy diasporalar talqini.**	*Migratsiya tushunchasi va asosiy shakllari* *Migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-madaniy oqibatlari* *Milliy diasporalar: shakllanish va rivojlanish omillari* *Migratsiya va diasporalar antropologiyasining tadqiqot metodlari*	**2**	**2**	**6**
9	**Ekologiya antropologiyasi**	*Ekologiya antropologiyasining paydo bo‘lishi va predmeti* *Inson va tabiat munosabatlarining antropologik tadqiqi* *Madaniy ekologiya konsepsiyasi (J. Steward, M. Harris)* *Global ekologik muammolar va antropologik yondashuvlar*	**2**	**2**	**6**

10	**Siyosiy antropologiya. Iqtisodiy va kasb antropologiyasi**	*Siyosiy antropologiya: hokimiyat, siyosiy tizimlar va yetakchilik* *An'anaviy va zamonaviy jamiyatlarda siyosiy strukturalar* *Iqtisodiy antropologiya: ishlab chiqarish, taqsimot va almashinuv* *Kasb va mehnat antropologiyasi: kasbiy rollar va identitet*	**2**	**2**	**6**
11	**Din antropologiyasi**	*Din antropologiyasining predmeti va nazariy yondashuvlari* *An'anaviy jamiyatlarda diniy qarashlar va marosimlar* *Din va madaniyat o'rtasidagi munosabat* *Sekulyarizatsiya va zamonaviy diniy tendensiyalar*	**2**	**2**	**6**
12	**Ta'lim va tibbiyot antropologiyasi**	*Ta'lim antropologiyasi: bilim va ijtimoiy merosni uzatish jarayoni* *Ta'lim tizimlarining antropologik tahlili (an'anaviy va zamonaviy)* *Tibbiyot antropologiyasi: sog'liq, kasallik va madaniyat* *Tibbiy amaliyot va sog'liqni saqlash tizimlarida antropologik yondashuv*	**2**	**2**	**6**
	Birinchi semester bo'yicha jami soat		**24**	**24**	**72**

10. Talabalar bilimini baholash

Maksimal va saralash ballari	**Ma'ruza mashg'ulotlarida 30 ball**		**Amaliy- seminar, 30 ball**		**jami**	**Yakuniy nazorat**	Jami
	Oraliq nazoat uchun	Mustaqil ta'lim	Joriy nazorat uchun	Mustaqil ta'lim	60	40	100
Maksimal bal 100%	15	15	15	15			
Saralash bali 60%	Saralash bali 36 ball						
Nazoratni o'tkazish muddati va shakli	Fanning 70 foiz o'zlashtirilganda (og'zaki)		Seminar mashg'ulotlari davomida amaliy topshiriqlar orqali			Yozma	

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$YaB=JN+ON+YaN$$

Bu yerda:

JN — joriy nazorat; ON — oraliq nazorat; YaN — yakuniy nazorat(Test).

Eslatma: dars mashg‘ultotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (60 ball) ning kamida 60 foizi (36 ball)ni to‘play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.

11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘trasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa, ish qabul qilinmaydi.

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig’i: **F. Odilov**

Fakultet dekani: **J. Xasanov**

Kafedra mudiri: **M. Yunusova**

Tuzuvchi: **Sh. Xoshimjonov**